OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION FAOLLIKNI OSHIRISH VA ILMIY ISHLANMALARNI TIJORATLASHTIRISHNING STRATEGIK BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Zaylobitdinova Husnida Xaliljon qizi,
katta o‘qituvchi,
Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti, Farg‘ona
+998905847226,
khusnidazaylobitdinova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarining innovatsion faolligini oshirish, ilmiy ishlanmalar natijalarini tijoratlashtirish hamda strategik va loyihaviy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi ilmiy ishlanmalarni iqtisodiyotning real sektori bilan integratsiyalash, intellektual mulk obyektlaridan iqtisodiy qiymat yaratish va loyiha ofisi faoliyatini institutsional jihatdan tashkil etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda tizimli, qiyosiy va institutsional tahlil, kontent-tahlil hamda normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganish usullaridan foydalanildi. Tahlillar universitet–sanoat–davlat hamkorligi, texnologiyalar transferi va loyiha boshqaruvining innovatsion rivojlanishdagi ahamiyatini ko‘rsatdi. Ilmiy natijalarni tijoratlashtirishda bozor talabini aniqlash, intellektual mulkni himoyalash, moliyalashtirish va sanoat bilan hamkorlikni muvofiqlashtirish muhim omillar sifatida belgilandi. Maqolada strategik rivojlanish va loyiha ofisini tashkil etish, loyihalar portfelini shakllantirish, KPI asosida monitoring yuritish hamda spin-off korxonalarni rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi. Shuningdek, soliq imtiyozlari samaradorligini amaldagi soliq stavkalari, soliq bazasi va real tijorat daromadlari asosida baholash zarurligi asoslandi. Taklif etilgan boshqaruv modeli oliy ta’lim muassasalarining ilmiy, tashkiliy va moliyaviy salohiyatini birlashtirish, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish va tijoratlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *innovatsion faoliyat, tijoratlashtirish, strategik boshqaruv, loyiha ofisi, spin-off, intellektual mulk, texnologiyalar transferi, universitet, KPI, ITTKI.*

KIRISH

Hozirgi bosqichda oliy ta’lim muassasalarining innovatsion faolligi ta’lim tizimi va moddiy-texnik salohiyatni modernizatsiyalash, ilmiy-tadqiqot faoliyati natijadorligini oshirish hamda iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy universitetlar o‘z faoliyatini an’anaviy ta’lim berish va ilmiy tadqiqotlar olib borish bilan cheklamasdan, bilimlarni yaratish, tarqatish va amaliyotga tatbiq etish orqali iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishning faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Bunday sharoitda oliy ta’lim muassasalari ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, texnologiyalar transferini rivojlantirish, innovatsion tadbirkorlik muhitini shakllantirish va ishlab chiqarish sektori bilan hamkorlikni kengaytirish orqali milliy innovatsion tizimning muhim institutsional bo‘g‘ini sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirishning huquqiy asoslari shakllantirilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-iyuldagi PQ-3855-son qarorida ilmiy ishlanmalar asosida mahsulot va xizmatlar yaratish, tijorat tashkilotlarini tashkil etish, intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni o‘tkazish va litsenziya shartnomalaridan foydalanish tijoratlashtirishning asosiy usullari sifatida belgilangan [1]. Ushbu hujjat oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining ilmiy natijalarini amaliyotga joriy etish, mualliflar hamda ilmiy jamoalarni rag‘batlantirish uchun muhim institutsional asos yaratadi.

Shunga qaramay, ilmiy ishlanmalarning bozor talablariga mosligini dastlabki bosqichda baholash mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, universitetlar va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi hamkorlikning ayrim hollarda epizodik xususiyatga egaligi, texnologik transfer infratuzilmasining cheklanganligi hamda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish manbalarining yetarli emasligi tijoratlashtirish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bundan tashqari, universitetlarda strategik boshqaruv va loyihaviy menejment tizimining yetarli darajada integratsiyalashmaganligi ilmiy, o‘quv, tashkiliy va tijorat faoliyati o‘rtasidagi muvofiqlashtirishni murakkablashtiradi. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida strategik rivojlanish bo‘limi va loyiha ofisini tashkil etish, loyihalar portfelini shakllantirish, resurslarni ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlash hamda natijalarni aniq ko‘rsatkichlar asosida baholash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta’lim muassasalarining innovatsion rivojlanishi, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish va universitet boshqaruvini takomillashtirish masalalari xorijiy olimlar tomonidan turli nazariy yondashuvlar asosida o‘rganilgan.

Birinchi yo‘nalishda Henry Etzkowitz va Loet Leydesdorff tomonidan ishlab chiqilgan “Triple Helix” - “Uch tomonlama spiral” konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega. Ushbu konsepsiyada universitet, sanoat va davlat innovatsion rivojlanishning o‘zaro bog‘liq institutsional subyektlari sifatida qaraladi. Mualliflarning fikricha, innovatsiyalarni yaratish va amaliyotga tatbiq etish jarayoni faqat universitet yoki ishlab chiqarish korxonasining alohida faoliyati bilan cheklanmaydi, balki ular o‘rtasidagi muntazam hamkorlik, bilim almashinuvi va institutsional muvofiqlashtirish orqali shakllanadi [2]. Burton R. Clark o‘zining Creating Entrepreneurial Universities: Organizational Pathways of Transformation nomli tadqiqotida tadbirkor universitet modelining tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirishda kuchli boshqaruv markazi, rivojlangan tashqi aloqalar, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash, akademik muhitni qo‘llab-quvvatlash va tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish muhimligini ta’kidlaydi [3].

Ikkinchi yo‘nalishda Donald Siegel, David Waldman, Leanne Atwater va Albert Link universitetlar tomonidan yaratilgan ilmiy bilimlarni korxonalarga uzatish jarayonlarini o‘rgangan. Ularning Commercial Knowledge Transfers from Universities to Firms: Improving the Effectiveness of University-Industry Collaboration nomli maqolasida texnologiyalar transferi, litsenziyalash, ilmiy hamkorlik va startaplar orqali

tijoratlashtirish mexanizmlari tahlil qilingan. Mualliflar universitet va sanoat o‘rtasidagi hamkorlik samaradorligiga tashkiliy madaniyatdagi farqlar, ortiqcha byurokratik tartiblar, rag‘batlantirish tizimining nomuvofiqligi hamda texnologiyalar transferi bo‘linmalari faoliyatidagi kamchiliklar ta’sir ko‘rsatishini qayd etadi [4]. Henry Etzkowitz tadbirkor universitet konsepsiyasini rivojlantirib, oliy ta’lim muassasalarining bilim yaratish bilan bir qatorda texnologik innovatsiyalarni shakllantirish va yangi korxonalar tashkil etishdagi rolini ta’kidlaydi. Uning tadqiqotlarida universitetlar, ishlab chiqarish korxonalari va davlat o‘rtasidagi hamkorlik innovatsion iqtisodiyotning muhim institutsional omili sifatida talqin qilinadi [5].

Donald Siegel, David Waldman, Leanne Atwater va Albert Linklarning texnologiyalar transferiga bag‘ishlangan keyingi tadqiqotlarida universitetlarda texnologiyalar transferi ofislarining tashkiliy funksiyalari, ilmiy natijalarni aniqlash, intellektual mulkni himoya qilish va sanoat hamkorlari bilan tijorat shartnomalarini shakllantirishdagi ahamiyati ko‘rib chiqilgan [6].

Uchinchi yo‘nalish strategik boshqaruv va loyihaviy menejment masalalarini qamrab oladi. Project Management Institute tomonidan ishlab chiqilgan PMBOK qo‘llanmasida loyihalarni boshqarish tashkilot strategiyasi bilan bog‘liq qiymat yaratish tizimining tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi [7]. Xalqaro standart ISO 21502:2020 esa loyihalarni rejalashtirish, tashkil etish, amalga oshirish, monitoring qilish va yakunlash bo‘yicha umumiy uslubiy ko‘rsatmalarni belgilaydi [8].

Xalqaro tashkilotlar tadqiqotlarida ham universitet-sanoat hamkorligi va bilimlar transferi masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining universitet-sanoat hamkorligiga bag‘ishlangan hisobotida qo‘shma ilmiy tadqiqotlar, akademik startaplar, qo‘shma patentlash va universitetlar tomonidan yaratilgan bilimlarni iqtisodiyot tarmoqlariga uzatish mexanizmlari tahlil qilingan [9].

O‘zbekiston sharoitida ilmiy natijalarni tijoratlashtirishning normativ-huquqiy asoslari, jumladan, Prezidentning PQ-3855-son qarori alohida ahamiyatga ega. Mazkur hujjatda ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirishning asosiy shakllari, muassasalar va ilmiy jamoalarni rag‘batlantirish mexanizmlari hamda amaliyotga joriy etish bilan bog‘liq vazifalar belgilangan [1]. Ushbu qarorda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2014-2018-yillarda davlat budjeti hisobidan ilmiy-amaliy va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun qariyb 800 mlrd so‘m ajratilgan va natijada ilmiy-tadqiqot hamda oliy ta’lim muassasalari tomonidan 700 dan ortiq ixtiro patentlashtirilgan. Shu bilan birga, qarorda davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan va patentlangan ixtirolarning tijoratlashtirish darajasi 0,5 foizni tashkil etgani qayd etilgan [1]. Bu ko‘rsatkich ilmiy natijalarni yaratish bilan ularni iqtisodiy muomalaga kiritish o‘rtasida institutsional va tashkiliy uzilishlar mavjud bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda oliy ta’lim muassasalarining innovatsion faolligi va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish jarayonlari tizimli yondashuv asosida universitetning

o‘quv, ilmiy, innovatsion, moliyaviy va tashkiliy faoliyati o‘zaro bog‘liq jarayonlar sifatida baholanib, strategik rivojlanish bo‘limi, loyiha ofisi, texnologiyalar transferi bo‘linmasi va spin-off korxonalarning innovatsion boshqaruvdagi o‘rni tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil orqali xorijiy tajribadagi tadbirkor universitet, “Triple Helix”, texnologiyalar transferi va loyihaviy boshqaruv yondashuvlarini milliy oliy ta’lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlari o‘rganildi. Shuningdek, normativ-huquqiy tahlil doirasida ilmiy natijalarni tijoratlashtirishga oid milliy qonunchilik, jumladan, PQ-3855-son qarorida belgilangan tijoratlashtirish shakllari, intellektual mulkdan foydalanish va ilmiy jamoalarni rag‘batlantirish mexanizmlari tadqiq etildi [1].

Loyihaviy boshqaruv mexanizmini ishlab chiqishda ISO 21502:2020 xalqaro standarti va Project Management Institute tomonidan taklif etilgan loyihalarni boshqarish tamoyillariga tayanildi [7; 8]. Shu asosda strategik maqsadlarni loyihalarga ajratish, loyihalar portfelini shakllantirish, resurslarni taqsimlash, ijroni monitoring qilish va natijalarni baholash bosqichlari belgilandi.

Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish samaradorligini baholashda tijoratlashtirilgan ishlanmalar, litsenziya shartnomalari va ulardan olingan daromad, spin-off korxonalar faoliyati, tashqi investitsiyalar, sanoat korxonalari bilan hamkorlik shartnomalari hamda patentlangan va amaliyotga joriy etilgan intellektual mulk obyektlari ulushini ifodalovchi ko‘rsatkichlardan foydalanish taklif etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta’lim muassasalarining innovatsion faolligi ilmiy-tadqiqot ishlari hajmi, patentlangan intellektual mulk obyektlari, tijoratlashtirilgan ishlanmalar, sanoat korxonalari bilan tuzilgan shartnomalar va innovatsion korxonalar faoliyati orqali namoyon bo‘ladi. Biroq ilmiy faoliyat natijalarining ko‘pligi har doim ham ularning iqtisodiy samaradorligini anglatmaydi. Ilmiy ishlanma iqtisodiy qiymat yaratishi uchun u bozor talabiga mos, texnologik jihatdan tayyor va ishlab chiqarishga joriy etish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-iyuldagi PQ-3855-son qarorida ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirishning asosiy shakllari belgilangan. Ular quyidagilardan iborat:

1. Ilmiy faoliyat natijalaridan foydalangan holda yaratilgan tovarlar, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlarni realizatsiya qilish.
2. Ilmiy ishlanma yoki intellektual mulk obyektidan foydalanish asosida tijorat tashkilotlarini tashkil etish.
3. Intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan mulkiy huquqlarni uchinchi shaxslarga o‘tkazish.
4. Intellektual mulk obyektlaridan foydalanish huquqini litsenziya shartnomalari orqali berish [1].

Mazkur mexanizmlar ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishning huquqiy asoslarini yaratadi, biroq ularning samaradorligi tegishli tashkiliy-iqtisodiy infratuzilmaga bog‘liq. Xususan, litsenziyalashda patent himoyasi, texnologiyaning bozor qiymati va litsenziya shartlari, spin-off korxonalarni tashkil etishda esa biznes-reja, boshlang‘ich kapital, bozor tahlili va tijoratlashtirish strategiyasi muhim

ahamiyatga ega.

PQ-3855-son qarorida qayd etilgan 0,5 foizlik ko‘rsatkich davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan va patentlangan ixtirolarning tijoratlashtirish darajasini ifodalaydi. Uni barcha ITTKI natijalarining sanoatga joriy etilish ko‘rsatkichi sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas [1].

Oliy ta’lim muassasalarida strategik maqsadlar ijrosini muvofiqlashtirish uchun Strategik rivojlanish bo‘limi va Loyiha ofisini tashkil etish taklif etiladi. Birinchi tuzilma uzoq muddatli maqsadlar va natijadorlik ko‘rsatkichlarini belgilasa, ikkinchisi ularning loyihalar, resurslar va mas’ul ijrochilar asosida amalga oshirilishini ta’minlaydi. B.R.Clark konsepsiyasida ham strategik boshqaruvni kuchaytirish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash va tashqi hamkorlikni rivojlantirish tadbirkor universitetning muhim xususiyatlari sifatida ko‘rsatilgan [3].

ISO 21502:2020 xalqaro standartida loyihalarni boshqarish jarayonlari tashkilotning xususiyatlari, loyihaning murakkabligi, ko‘lami va amalga oshirish shartlariga moslashtirilishi lozimligi belgilangan [8]. Shu sababli universitetlarda loyiha ofisini tashkil etishda yagona qat’iy tashkiliy modelni ko‘chirish emas, balki muassasaning hajmi, moliyaviy imkoniyatlari, ilmiy salohiyati va strategik ustuvorliklariga mos modelni tanlash zarur. Loyiha ofisining samarali faoliyat yuritishi uchun uning tarkibida bir-birini to‘ldiruvchi funksional yo‘nalishlarni shakllantirish lozim.

1-jadval

Oliy ta’lim muassasalarida loyiha ofisini tashkil etish bosqichlari

Bosqich	Asosiy chora-tadbirlar	Kutilayotgan natija
1. Tashkiliy tayyorgarlik	Loyihaviy boshqaruv zaruratini asoslash, mavjud resurslarni tahlil qilish	Loyihaviy boshqaruvga tayyorgarlik darajasini aniqlash
2. Me’yoriy-huquqiy asos	Loyiha ofisi nizomi, vakolat va javobgarliklarni belgilash	Faoliyatning huquqiy va tashkiliy asoslarini shakllantirish
3. Kadrlar bilan ta’minlash	Mutaxassislarni tanlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish	Loyiha boshqaruvi kompetensiyalarini rivojlantirish
4. Loyihalar portfeli	Ustuvor loyihalarni tanlash va resurslar bilan ta’minlash	Strategik maqsadlarni amaliy loyihalarga aylantirish
5. Ijroni monitoring qilish	Muddat, xarajat, sifat va KPI ko‘rsatkichlarini nazorat qilish	Loyihalar ijrosi ustidan tizimli nazoratni ta’minlash
6. Natijalarni baholash	Loyihalar samaradorligini tahlil qilish va tuzatishlar kiritish	Boshqaruv qarorlarining natijadorligini oshirish

Tadqiqot doirasida quyidagi uchta asosiy yo‘nalishni tashkil etish taklif qilinadi:

1.Tahliliy yo‘nalish. Ushbu yo‘nalish ta’lim xizmatlari bozori, mehnat bozori, ilmiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida universitetning istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlaydi. Shuningdek, loyihalarning ichki va tashqi omillar ta’sirida yuzaga keladigan risklarini baholaydi, boshqaruv qarorlari uchun tahliliy ma’lumotlar tayyorlaydi.

2.Rejalashtirish va resurslarni muvofiqlashtirish yo‘nalishi. Universitetning ustuvor loyihalar portfelini shakllantirish, ularni moliyaviy va moddiy resurslar bilan

ta’minlash, xarajatlar smetasini ishlab chiqish, moliyalashtirish manbalarini aniqlash hamda loyihalar muddatlarini muvofiqlashtirish bilan shug‘ullanadi.

3.Amalga oshirish va monitoring yo‘nalishi. Loyihalarning ijrosini nazorat qilish, belgilangan ko‘rsatkichlar bo‘yicha hisobotlarni shakllantirish, loyiha ishtirokchilarining faoliyatini muvofiqlashtirish va yuzaga keladigan muammolarni tezkor aniqlash vazifalarini bajaradi.

Jadvalda keltirilgan ko‘rsatkichlar loyiha ofisi faoliyatini kompleks baholash imkonini beradi.

2-jadval

Oliy ta’lim muassasalarida loyiha ofisi faoliyatini baholash uchun taklif etilayotgan KPI ko‘rsatkichlari

KPI yo‘nalishi	Baholash ko‘rsatkichi	Hisoblash yoki baholash mezoni
Strategik rejalashtirish	Strategik loyihalar ijrosi	Bajarilgan loyihalar / rejalashtirilgan loyihalar × 100
Muddatlar boshqaruvi	O‘z vaqtida yakunlangan loyihalar ulushi	Muddatida yakunlangan loyihalar / jami yakunlangan loyihalar × 100
Moliyaviy samaradorlik	Budjetdan foydalanish darajasi	Haqiqiy xarajatlar / tasdiqlangan budjet × 100
Innovatsion faoliyat	Tijoratlashtirilgan ishlanmalar soni	Hisobot davrida bozorga chiqarilgan yoki amaliyotga joriy etilgan ishlanmalar
Intellektual mulk	Litsenziya shartnomalari soni	Hisobot davrida tuzilgan litsenziya shartnomalari
Tashqi hamkorlik	Sanoat korxonalari bilan qo‘shma loyihalar	Amaldagi qo‘shma loyihalar soni
Investitsion faollik	Jalb qilingan tashqi mablag‘lar	Grant, investitsiya va shartnomalar orqali jalb qilingan mablag‘lar
Kadrlar salohiyati	Loyihaviy kompetensiyaga ega xodimlar ulushi	Tegishli tayyorgarlikdan o‘tgan xodimlar / loyiha faoliyatiga jalb qilingan xodimlar × 100

Universitet huzurida tashkil etiladigan spin-off korxonalar ilmiy ishlanmalarni bozor talablariga moslashtirish va ularni tijorat mahsulotiga aylantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Bunday korxonalarda universitet tomonidan yaratilgan intellektual mulk, ilmiy bilim va texnologik yechimlar iqtisodiy faoliyatga jalb qilinadi. Bunda universitetning ustav kapitalidagi ishtiroki, intellektual mulk obyektining korxona kapitaliga qo‘shilishi, litsenziyalash va boshqa huquqiy mexanizmlar amaldagi qonunchilik asosida belgilanishi lozim [1].

Oliy ta’lim muassasalarining tijoratlashtirish faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlari muhim ahamiyatga ega. Bunday mexanizmlar qatoriga ilmiy grantlar, innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, venchur moliyalashtirish, davlat-xususiy sheriklik, sanoat korxonalari buyurtmalari va soliq imtiyozlari kiradi. Biroq soliq imtiyozlarining samaradorligini baholashda soliq stavkasining pasayishi natijasida universitet yoki uning huzuridagi tijorat subyekti ixtiyorida qoladigan mablag‘ni aniqlash bilan cheklanmaslik kerak. Bunda soliq solinadigan foyda bazasi, faoliyatning huquqiy maqomi, amaldagi soliq stavkasi, imtiyoz qo‘llash shartlari va bo‘shagan mablag‘larning qayta investitsiya qilinishi

hisobga olinishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasida 2026-yil uchun yuridik shaxslar foyda solig‘ining umumiy stavkasi 15 foiz etib ko‘rsatilgan. 12 foizlik stavka esa qo‘shilgan qiymat solig‘i va jismoniy shaxslar daromad solig‘i uchun qo‘llaniladigan umumiy stavkalar qatoriga kiradi [12]. Shu sababli oliy ta’lim muassasalari tijorat faoliyatiga nisbatan soliq imtiyozi taklif etilganda, uni 12 foizlik foyda solig‘i stavkasidan kelib chiqib emas, balki amaldagi soliq rejimi va tegishli subyektning huquqiy maqomini aniqlash asosida hisoblash lozim. Agar umumiy foyda solig‘i stavkasi 15 foiz, taklif etilayotgan imtiyozli stavka esa 6 foiz deb olinsa, soliq yukining kamayishi 9 foiz punktini tashkil etadi. Bunda soliq tejalishi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$E_s=B\times(0,15-0,06) \quad \text{yoki} \quad E_s=0,09B$$

Masalan, shartli ravishda soliq solinadigan foyda bazasi 1 mlrd so‘m deb qabul qilinsa, amaldagi 15 foizlik stavkada soliq summasi 150 mln so‘mni, 6 foizlik imtiyozli stavkada esa 60 mln so‘mni tashkil etadi. Natijada soliq tejalishi 90 mln so‘mga teng bo‘ladi.

3-jadval

Foyda solig‘i stavkasini pasaytirishning shartli iqtisodiy samarasi

Ko‘rsatkich	Amaldagi stavka	Taklif etilayotgan stavka
Soliq solinadigan foyda bazasi, mln so‘m	1 000	1 000
Foyda solig‘i stavkasi, %	15	6
Hisoblangan soliq summasi, mln so‘m	150	60
Soliq tejalishi, mln so‘m	-	90

Ushbu hisob-kitob soliq imtiyozining potensial moliyaviy ta’sirini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, uchta OTM bo‘yicha 147 mln so‘mlik tejalishdan 110 ta OTMga proporsional hisob-kitob qilishning o‘zi 5,39 mlrd so‘mni beradi. Bu ham faqat barcha muassasalarning soliq bazasi bir xil deb faraz qilingandagina qo‘llanadigan shartli ekstrapolyatsiyadir. Soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligini to‘liq baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichlarni birgalikda hisoblash tavsiya etiladi:

— soliq imtiyozi natijasida korxona yoki muassasa ixtiyorida qoladigan mablag‘;
— ushbu mablag‘ning ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarga qayta yo‘naltirilgan ulushi;
— tijoratlashtirilgan ilmiy ishlanmalar sonining o‘sishi;
— litsenziya shartnomalaridan olingan daromad;
— spin-off korxonalar tomonidan yaratilgan qo‘shimcha qiymat;
— davlat budjeti uchun soliq imtiyozining fiskal xarajati;
— imtiyoz natijasida shakllangan yangi ish o‘rinlari va investitsiyalar.

Shunday qilib, soliq imtiyozlari faqat soliq yukini kamaytirish vositasi sifatida emas, balki ilmiy natijalarni tijoratlashtirishga yo‘naltirilgan investitsion rag‘batlantirish mexanizmi sifatida baholanishi lozim.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarining innovatsion faolligini oshirishda

faqat qo‘shimcha moliyaviy resurslarni jalb etish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Buning uchun universitetning tashkiliy tuzilmasi, boshqaruv jarayonlari, ilmiy faoliyatni rag‘batlantirish mexanizmlari va sanoat bilan hamkorlik tizimi o‘zaro uyg‘unlashtirilishi zarur.

Birinchidan, universitet–sanoat–davlat hamkorligini mustahkamlash zarur. “Triple Helix” konsepsiyasiga ko‘ra, ushbu uch subyektning o‘zaro hamkorligi innovatsion rivojlanishning muhim shartidir [2]. Shu bois qo‘shma laboratoriyalar, uzoq muddatli hamkorlik shartnomalari va korxonalar buyurtmasi asosidagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish lozim.

Ikkinchidan, Strategik rivojlanish bo‘limi va Loyiha ofisi vakolatlarini aniq belgilash talab etiladi. Birinchi tuzilma strategik maqsadlar va ustuvor yo‘nalishlarni ishlab chiqsa, ikkinchisi ularni loyihalar, resurslar, muddatlar va mas’ul ijrochilar orqali amalga oshirishni muvofiqlashtirishi kerak.

Uchinchidan, loyihalarni tanlashda portfel yondashuvini qo‘llash maqsadga muvofiq. Loyihalar strategik ahamiyati, iqtisodiy samarasi, ilmiy yangiligi, moliyaviy talabi va risk darajasi asosida baholanib, resurslar ustuvor loyihalarga yo‘naltirilishi lozim.

To‘rtinchidan, texnologiyalar transferi tizimini rivojlantirish zarur. Universitetlarda patentlash, litsenziyalash, bozor tahlili va investorlar bilan ishlash xizmatlarini takomillashtirish ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etishga yordam beradi. Tadqiqotlarda bilimlar transferi samaradorligi tashkiliy madaniyat, rag‘batlantirish va texnologiyalar transferi bo‘linmalari faoliyatiga bog‘liqligi qayd etilgan [4; 6].

Beshinchidan, spin-off korxonalarni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish lozim. Bunda ilmiy mualliflar, universitet va investorlarning huquq hamda majburiyatlari, intellektual mulkdan foydalanish va daromadlarni taqsimlash tartibi aniq belgilanishi kerak.

Oltinchidan, loyihaviy boshqaruv kompetensiyalarini oshirish muhim. Universitet rahbarlari, loyiha rahbarlari va mas’ul xodimlarning rejalashtirish, budjetlashtirish, risklarni boshqarish va monitoring bo‘yicha malakasini rivojlantirish lozim. PMBOK va ISO 21502 standartlari loyihalarni tashkilot maqsadlari hamda manfaatdor tomonlar ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirishga yo‘naltirilgan [7; 8].

Yettinchidan, KPI tizimini kompleks shakllantirish zarur. Patentlar soni bilan bir qatorda litsenziya daromadlari, tijoratlashtirilgan ishlanmalar ulushi, sanoatga joriy etilgan texnologiyalar va spin-off korxonalarning iqtisodiy natijalari ham baholanishi kerak.

Sakkizinchidan, moliyaviy rag‘batlantirish samaradorligini monitoring qilish talab etiladi. Soliq imtiyozlari, grantlar va boshqa qo‘llab-quvvatlash vositalarining natijadorligi fiskal xarajatlar hamda universitet va korxonalar yaratgan qo‘shimcha iqtisodiy qiymat asosida baholanishi lozim.

Tadqiqot doirasida taklif etilayotgan integratsiyalashgan boshqaruv modeli quyidagi o‘zaro bog‘liq elementlardan tashkil topadi:

1. Strategik rivojlanish bo‘limi - universitetning ustuvor maqsadlari va rivojlanish ko‘rsatkichlarini belgilaydi.

2. Loyiha ofisi - strategik maqsadlarni loyihalar portfeliga aylantiradi va ijroni muvofiqlashtiradi.

3. Texnologiyalar transferi bo‘linmasi - ilmiy ishlanmalarni huquqiy himoyalash, bozor talabiga moslashtirish va tijoratlashtirishni tashkil etadi.

4. Spin-off korxonalar - ilmiy natijalarni mahsulot va xizmatlarga aylantirishning tadbirkorlik mexanizmi sifatida faoliyat yuritadi.

5. KPI va monitoring tizimi - boshqaruv qarorlari va loyihalar natijadorligini baholaydi.

6. Moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmi - ilmiy jamoalar va innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Mazkur modelning asosiy afzalligi strategik rejalashtirish, loyiha boshqaruvi va tijoratlashtirish jarayonlarini yagona boshqaruv zanjiriga birlashtirishdan iborat. Bunda loyiha ofisi universitetning barcha faoliyatini markazlashtirib boshqaruvchi tuzilma sifatida emas, balki akademik va ma’muriy bo‘linmalar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiruvchi, uslubiy ko‘mak beruvchi va strategik natijalarni monitoring qiluvchi mexanizm sifatida faoliyat yuritishi kerak.

XULOSA

Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarining innovatsion faolligini oshirish va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish samaradorligini ta’minlashda strategik boshqaruv, loyihaviy menejment va universitet-sanoat hamkorligini o‘zaro uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatdi.

Birinchidan, universitetlarning innovatsion salohiyati patentlar soni bilan bir qatorda ilmiy ishlanmalarning amaliyotga joriy etilishi, litsenziya daromadlari va spin-off korxonalar faoliyati asosida baholanishi lozim.

Ikkinchidan, Strategik rivojlanish bo‘limi va Loyiha ofisini tashkil etish strategik maqsadlarni aniq loyihalar, resurslar va mas’ul ijrochilar bilan bog‘lash, loyiha portfeli hamda KPI monitoringini yo‘lga qo‘yish imkonini beradi.

Uchinchidan, tijoratlashtirish samaradorligini oshirish uchun texnologiyalar transferi, litsenziyalash, intellektual mulkni himoyalash va spin-off korxonalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

To‘rtinchidan, loyiha ofisi faoliyatini loyihalarning o‘z vaqtida bajarilishi, budjet samaradorligi, jalb qilingan investitsiyalar, tijoratlashtirilgan ishlanmalar va sanoat bilan hamkorlik natijalari asosida baholash maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, soliq imtiyozlari samaradorligi soliq bazasi, subyektning huquqiy maqomi va tijorat faoliyati natijalarini hisobga olgan holda aniqlanishi, tejalgan mablag‘lardan ilmiy tadqiqotlar, laboratoriyalar va spin-off korxonalarni rivojlantirishda foydalanilishi monitoring qilinishi lozim.

Umuman olganda, oliy ta’lim muassasalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun strategik rejalashtirish, loyihaviy boshqaruv, texnologiyalar transferi, intellektual mulkni tijoratlashtirish va moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlarini yagona tizimga birlashtirish zarur. Taklif etilgan boshqaruv modeli universitetlarning ilmiy va tashkiliy salohiyatidan samarali foydalanish, ishlab chiqarish sektori bilan hamkorlikni kuchaytirish, innovatsion ishlanmalarni amaliyotga

joriy etish hamda oliy ta’lim muassasalarining uzoq muddatli raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-iyuldagi PQ-3855-son qarori. “Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. https://lex.uz/uz/docs/-3823583
2. Etzkowitz H., Leydesdorff L. The Dynamics of Innovation: From National Systems and “Mode 2” to a Triple Helix of University-Industry-Government Relations // Research Policy. 2000. Vol. 29, Issue 2. P. 109-123. https://doi.org/10.1016/S0048-7333(99)00055-4
3. Clark B. R. Creating Entrepreneurial Universities: Organizational Pathways of Transformation. Oxford: Pergamon Press, 1998.
4. Siegel D. S., Waldman D. A., Atwater L. E., Link A. N. Commercial Knowledge Transfers from Universities to Firms: Improving the Effectiveness of University-Industry Collaboration // The Journal of High Technology Management Research. 2003. Vol. 14, Issue 1. P. 111-133. https://doi.org/10.1016/S1047-8310(03)00007-5
5. Etzkowitz H. Innovation in Innovation: The Triple Helix of University-Industry-Government Relations // Social Science Information. 2003. Vol. 42, Issue 3. P. 293-337. https://doi.org/10.1177/05390184030423002
6. Siegel D. S., Waldman D. A., Atwater L. E., Link A. N. Toward a Model of the Effective Transfer of Scientific Knowledge from Academicians to Practitioners: Qualitative Evidence from the Commercialization of University Technologies // Journal of Engineering and Technology Management. 2004. Vol. 21, Issues 1-2. P. 115-142. https://doi.org/10.1016/j.jengtecman.2003.12.006
7. Project Management Institute. A Guide to the Project Management Body of Knowledge (PMBOK Guide). 7th ed. Pennsylvania: Project Management Institute, 2021.
8. International Organization for Standardization. ISO 21502:2020. Project, Programme and Portfolio Management - Guidance on Project Management. Geneva: ISO, 2020.
9. OECD. University-Industry Collaboration: New Evidence and Policy Options. Paris: OECD Publishing, 2019. https://doi.org/10.1787/e9c1e648-en
10. Etzkowitz H., Webster A., Gebhardt C., Terra B. R. C. The Future of the University and the University of the Future: Evolution of Ivory Tower to Entrepreneurial Paradigm // Research Policy. 2000. Vol. 29, Issue 2. P. 313-330. https://doi.org/10.1016/S0048-7333(99)00069-4
11. Etzkowitz H., Leydesdorff, L. The Triple Helix: University-Industry-Government Relations // Annals of the New York Academy of Sciences. 1996. Vol. 787. P. 67-86. https://doi.org/10.1111/j.1749-6632.1996.tb44849.x
12. Invest Uzbekistan. Taxes, Incentives and Customs: Main Standard Tax Rates for 2026. https://invest.gov.uz/en/guide/faq